FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.05.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETINING TOSHKENT FILIALI

XOLJIGITOV ASQAR MARIFJONOVICH

CHETDAN KELTIRILGAN GOLSHTIN ZOTLI G‘UNOJINLARNI BIRINCHI TUG‘ISHDA SERSUT QILISH TEXNOLOGIYASI

06.02.03-Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi

QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Farg‘ona–2025

UO‘K: 636.633.46.2.28

Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по сельскохозяйственным наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on agricultural sciences

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.05.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETINING TOSHKENT FILIALI

XOLJIGITOV ASQAR MARIFJONOVICH

CHETDAN KELTIRILGAN GOLSHTIN ZOTLI G‘UNOJINLARNI BIRINCHI TUG‘ISHDA SERSUT QILISH TEXNOLOGIYASI

06.02.03-Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi

QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Farg‘ona–2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbeksiton Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD /Qx1446 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Fan doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filialida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fdu.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ruziyev Raxmonqul Istamovich** qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim
Rasmiy opponentlar:	**Turganbayev Ruzimbay Urazbayevich** qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor
	Sattarov Normurod Eshmamatovich qishloq xo'jalik fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent davlat agrar universiteti**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalar beruvchi PhD. 03/30.12.2019.B.05.03 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil «27» 02 soat 9^{00} dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi 19-uy). Tel.: (+99873) 244-44-02; faks: (99873) 244-44-93; Veb-sahifa: www.fdu.uz. e-mail: fardu_info@umail.uz.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Farg'ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (460 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi 19-uy. Tel.: (+99873)244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «12» 02 da tarqatildi.

(2025-yil «12» «02» № 1 dagi raqamli reestr bayonnomasi.)

I.I.Zokirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

U.B.Mirzayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.n., dotsent.

G'.Yuldashev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda hozirgi kunga kelib aholining kundalik ehtiyojiga aylanib borayotgan chorvachilik mahsulotlari – sut, sut mahsulotlari, go‘sht, go‘sht mahsulotlariga bo‘lgan talabi kundan kunga oshib bormoqda. Chorvachilik sohasida oziqa bazasini mustahkamlashda oziqalarning ahamiyati katta hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligining chorvachilik sohasida sog‘in sigirlarning sut mahsuldorligini oshirish va sog‘lom bola olish maqsadida mustahkam oziqa bazasini yaratish, sog‘in sigirlarni to‘la qiymatli oziqlantirishni tashkil etish, yetarlicha to‘yimli oziqalar bilan ta’minlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda chorvachilik sohasini takomillashtirish asosan sutdor qoramolchilikni rivojlantirish uchun oziqa bazasini mustahkamlashga katta e’tibor berib kelinmoqda. Ko‘k massa, omuxta yemlar, va shirali oziqalar chorvachilik sohasining asosiy oziqa bazasi hisoblanadi. Bu oziqalar bilan oziqlantirganda sut yo‘nalishidagi qoramollarning sut mahsuldorligi ko‘tarilib, xo‘jalik uchun foyda keltirishga xizmat qiladi. Shuning uchun jahonda bunday oziqalar bilan oziqlantirib chorvachilikni yetakchi tarmog‘i bo‘lgan sut yo‘nalishidagi qoramollarning mahsuldorligini oshirishga qaratilgan ishlar keng tarqalmoqda. Chorva mollariga shirali oziqalar berish orqali ularning qon tarkibi makro-mikro elementlarga boyitiladi. Natijada sutning sifati yaxshilanadi, shuningdek, kunlik sog‘ib olish miqdori oshishi hamda sog‘lom bola olish tadqiqotlarning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Respublikamizda sutdor qoramolchilik yetakchi tarmoq bo‘lib, ishlab chiqarilayotgan go‘sht va sutning asosiy qismi uning ulushiga to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi PQ-120-sonli qarori[1] O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasini va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi PQ-121-sonli qarori[2] “Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva oziqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi muhim qaroridir. 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, PF-60 sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “Taraqqiyot strategiyasi” ning 30-chi va 32-chi maqsadlarida Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5% ga yetkazish, chorvachilik oziqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini 1.5-2 baravar ko‘paytirish vazifasi belgilangan. Respublikamizning barcha xo‘jaliklarida chorvachilikni jadal rivojlantirish, sut va go‘sht mahsulotlari ishlab chiqarishni barqaror oshirib borishida qoramolchilikni yuritish tizimini zamonaviy talablarda shakllantirish dolzarb hisoblanadi. Chorvachilikning barcha ko‘rsatkichlari 1991-2018-yillar davomida ko‘tarildi. Bu, ayniqsa, 2016-yildan boshlab jadallashdi. Jumladan, 2018-yilda qoramollar soni 1991-yilga nisbatan 2,49 baravar, shu

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi PQ-120-sonli qarori
[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi PQ-121-sonli qarori

jumladan, sigirlar soni 2,13 baravar, sut ishlab chiqarish hajmi 3,14 baravar, go‘sht 2,85 baravar, tuxum yetishtirish 3,14 baravar va qorako‘l terisini tayyorlash 73,4 baravarga ko‘paydi. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy, tashkiliy-texnik tadbirlar kompleksi qishloq xo‘jaligi, shu jumladan, qoramolchilikni rivojlantirish, sut va go‘sht mahsulotlari ishlab chiqarishni jadallashtirish uchun imkoniyat yaratmoqda. Keyingi ikki yil mobaynida sut va go‘sht ishlab chiqarish tegishlicha 9,6 % va 10,7 % ko‘paydi. 2021-yilda qoramollar sonini 13825 ming, sigirlarni 5065 ming bosh, sut ishlab chiqarishni 11882,5 ming, go‘shtni 2433,5 ming tonnaga yetkazish topshirig‘i O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi zimmasiga yuklatildi. Ushbu qo‘llanmani yozish va nashr ettirishdan maqsadimiz yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning oqilona rahbarligida tadbirkor chorvadorlarimiz va fidoyi olimlarimiz mehnati bilan chorvachilikda katta ijobiy o‘zgarishlar va ulkan zafarlarga erishishdir. Chorvachilikni rivojlantirish va yangi marralarga erishish ko‘proq chorvador tadbirkorlar va bilimdon, ishbilarmon, fidoyi va tashabbuskor yoshlarga bog‘liq. Shu boisdan ularga har tomonlama ilmiy va amaliy yordam ko‘rsatishimiz zarur. Ilmiy asoslangan strategik andozalarga ko‘ra, 2030-yilga qadar respublikaning barcha toifadagi xo‘jaliklarida qoramolchilikni jadal rivojlantirishda ularning sonini 16 mln. bosh, shu jumladan, sigirlarni 6 mln., sut ishlab chiqarishni 24 mln. tonna, qoramol go‘shtini (tirik vaznda) 2,5 mln tonnaga yetkazish imkoniyatlarini ishga solishimiz lozim. Aholi sonining jadal o‘sib borishida jon boshiga 630 kg sut va 65 kg (tirik vaznda) qoramol go‘shti ishlab chiqiladi yoki jami go‘sht mahsuloti (so‘yim vaznda) 54 kg tenglashadi. Mamlakatimizda aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda so‘nggi yillarda keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”da chorvachilikni ilmiy asosda rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi hayvonlarining mahsuldorligini yanada oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, seleksiya-naslchilik ishlarini yaxshilash, zotlarning nasl, mahsuldorlik, pushtdorlik xususiyatlarini takomillashtirish, ularning sermahsul yangi liniyalarini, oilalarini, tiplarini yaratish vazifalari belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 23-martdagi PQ-308-sonli[3] “Shaxsiy yordamchi va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarini ko‘paytirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2008-yil 21-apreldagi PQ-842-sonli[4] “Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarini ko‘paytirishni rag‘batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va 2015-yil 29-dekabrdagi PQ-2460-sonli[5] “2016-2020-yillarda qishloq xo‘jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga doir boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 23-martdagi PQ-308-sonli
[4] 2008-yil 21-apreldagi PQ-842-sonli
[5] 2015-yil 29-dekabrdagi PQ-2460-sonli

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi Respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Golshtin zotli sigirlarning sut mahsuldorligini oshirish, pushtdorlik, yelin va boshqa xususiyatlarini yaxshilash, zotni takomillashtirish, yuqori mahsuldor podalarni yaratish bo‘yicha Respublikamizda va Xorij davlatlarida bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan va uning natijalari ishlab chiqarishga tavsiya etilgan. Respublikamiz va xorij olimlari Sh.A.Akmalxonov, E.Y.Karchevskiy, M.E.Ashirov, U.N.Nosirov, I.Maqsudov, B.U.Xidirov, U.Sh.Ballasov, B.M.Ashirov, X.G‘iyosov, L.K.Ernst, A.I.Bich, N.I.Strekozov, J.G.Loginov, P.N.Proxorenko, L.S.Jebrovskiy, A.V.Egiazaryan va boshqa olimlarning ilmiy-tadqiqotlarida golshtin zotini takomillashtirish, chatishtirishda bu zotning imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligi aniqlangan. Ushbu olimlarning tadqiqotlari natijalarining ko‘rsatishicha, golshtin zotli qoramollar urchitish hududlaridan qat’iy nazar, yaxshilovchi zot hisoblanadi. Bu ma’lumotlar golshtin zotli qoramollarni sof zotli urchitishda va chatishtirishda foydalanish sermahsul reproduktor xo‘jaliklari yaratishda, mahalliy zotlarning mahsuldorlik xususiyatlarini takomillashtirishda, ularning yangi tiplarini, podalarini yaratishda muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Ushbu olimlarning tadqiqotlari natijalarining ko‘rsatishicha, golshtin zotli qoramollar urchitish hududlaridan qat’iy nazar, yaxshilovchi zot hisoblanadi. Bu ma’lumotlar golshtin zotli qoramollarni sof zotli urchitishda va chatishtirishda foydalanish sermahsul reproduktor xo‘jaliklari yaratishda, mahalliy zotlarning mahsuldorlik xususiyatlarini takomillashtirishda, ularning yangi tiplarini, podalarini yaratishda muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali tadqiqot ishlar rejasining ilmiy mavzusi asosida bajarilgan

Tadqiqotning maqsadi. Toshkent viloyati sharoitida chetdan keltirilgan nemis seleksiyasidagi golshtin zotli sigirlarning asosiy xo‘jalik foydali belgilariga va mahsuldorlik xususiyatlariga oziqlantirish ratsioni to‘yimliligini 10-15% oshirish orqali sersut qilishning sut mahsuldorligi ta’sirini o‘rganish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari. Germaniyadan keltirilgan nemis seleksiyasidagi golshtin zotli sigirlarning birinchi tug‘ishda 90 kun davomida ratsion to‘yimliligini 10-15 % oshirish orqali sersut qilish;

to‘la qiymatli ratsion AR to‘yimliligini 10-15 % ga ratsion bilan birinchi tuqqan sigirlarni sersut qilishni qo‘llash orqali sut mahsuldorligiga, sutining sifat ko‘rsatkichlariga ta’siri darajasini o‘rganish;

sigirlarning ekstereri, yelin, pushtdorlik, oziqani sut bilan qoplash ko‘rsatkichlarini o‘rganish;

nemis seleksiyasiga mansub golshtin zotli sigirlarning ayrim biologik xususiyatlarini baholash;

sigirlarning turli I laktatsiyalarda sut mahsuldorligining birinchi tug‘ishidagi tirik vazniga, oziqlantirish ratsioni to‘yimliligini, sutdan chiqqandan tug‘ishigacha bo‘lgan davriga, tirik vazni, servis-davri davomiyligiga bog‘liqlikda o‘rganib baholash;

tadqiqotlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti bo‘lib Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumani “Jamol ota chorva-nasl” naslchilik fermer xo‘jaligiga Germaniya davlatidan keltirilgan nemis seleksiyasidagi sof golshtin zotli I laktatsiyalardagi sigirlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti. Nemis seleksiyasiga mansub golshtin zotli I laktatsiyadagi 90 kunda sersut qilishning sigirlarning sut mahsuldorligi, sutining sifat ko‘rsatkichlari, eksterer o‘lchamlari, yelin, pushtdorlik, tirik vazn ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarni bajarish jarayonida zootexnikaviy (sut mahsuldorligi, sutning sifat ko‘rsatkichlari, eksterer, yelin, pushtdorlik, oziqani sut bilan qoplash ko‘rsatkichlari), biologik (klinik, gematologik ko‘rsatkichlar, issiqqa chidamlilik indeksi) va statistik (o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkich va xato, o‘zgaruvchanlik koeffitsiyenti, guruhlar aro farqlar ishonchliligi) usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Toshkent viloyati sharoitida chetdan keltirilgan golshtin zotli g‘unojinlarni birinchi tug‘ishda sut mahsuldorligi oziqlantirish ratsioni to‘yimliligini oshirish orqali sersut qilish davrining maqbul muddatlari aniqlangan;

chetdan olib kelingan golshtin zotli birinchi tug‘ishdagi sigirlarni sersut qilish davrida oziqlantirish ratsioni to‘yimliligini 10-15 % oshirishning sut mahsuldorligi, tirik vazni va yelin shakllariga ta’siri aniqlangan;

chetdan olib kelingan golshtin zotli birinchi tug‘ishdagi sigirlarni sersut qilish davrida oziqlantirish ratsioni to‘yimliligini 10-15 % oshirishning mahsuldorlik, texnologik, pushtdorlik xususiyatlariga ta’siri aniqlangan;

chetdan olib kelingan golshtin zotli birinchi tug‘ishdagi sigirlarning sut mahsuldorligi, tirik vazni va vannasimon yelin shakliga ega irsiy salohiyatga ega bo‘lgan podasi yaratilishiga asos solingan;

sigirlar laktatsiyasining kechish xususiyatlari, eksterer, yelin, oziqani sut bilan qoplash ko‘rsatkichlarining sersut qilish darajasiga bog‘liqligi aniqlangan;

chetdan keltirilgan sigirlarning ayrim biologik xususiyatlari Toshkent viloyatining o‘ziga xos sharoitida o‘rganilib baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

birinchi marta Toshkent viloyati sharoitida Germaniyadan keltirilgan nemis seleksiyasidagi golshtin zotli sigirlarning I laktatsiyasida sut mahsuldorligi bo‘yicha irsiy salohiyati, I laktatsiyasining dastlabki 90 kunida sersut qilish usulida yuzaga chiqarildi;

golshtin zotli sigirlarning sut mahsuldorlik xususiyatlarini turli omillarga bog‘liqlikda takomillashtirish va sermahsul sutbop podalar yaratish usuli ishlab chiqildi va joriy etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlar zamonaviy uslub va vositalardan foydalangani, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali aprobatsiya komissiyasi tomonidan tadqiqot ishlari va birlamchi materiallarning ijobiy baholangani, olingan ma’lumotlar matematik-statistik ishlovdan o‘tkazilgani, joriy etish tadbirlari dalolatnomalar bilan asoslangani, tadqiqot natijalari amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining **ilmiy ahamiyati** Germaniyadan keltirilgan golshtin zotli sigirlarning I laktatsiyasining dastlabki 90 kunida sersut qilish tadbirini qo‘llash nafaqat ushbu laktatsiyasida, balki II va III laktatsiyalarda ham sut mahsuldorligini yuqori darajada bo‘lishini ta’minlashi, shuningdek, sigirlarning mahsuldorlik xususiyatlarini turli omillarga bog‘liqlikda takomillashtirish asoslari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning **amaliy ahamiyati** chetdan keltirilgan golshtin zotli sigirlarning sut mahsuldorlik xususiyatlarini Toshkent viloyati sharoitida sersut qilish usulida yaxshilashning metodlari ishlab chiqilgan va bu sermahsul sutbop podalar yaratishda hamda golshtin zotining irsiy salohiyatini to‘liq yuzaga chiqarishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi Golshtin zotli sigirlarning sut mahsuldorlik, texnologik va pushtdorlik xususiyatlarini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar natijalari asosida:

golshtin zotli sigirlar uchun aniqlangan maqbul yuqori mahsuldor sigirlar podasi Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumanidagi «Jamol ota chorva-nasl» naslchilik fermer xo‘jaligida joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2024-yil 4-noyabrdagi 02/23-615-sonli ma’lumotnomasi). Natijada I laktatsiyaga ega golshtin zotli sigirlardan 7037904 so‘m sof foyda olingan;

golshtin zotli sigirlarning sermahsul seleksiya podasi Yangiyo‘l tumanidagi «Muxtor ota nabiralari» naslchilik fermer xo‘jaligida joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2024-yil 4-noyabrdagi 02/23-615-sonli ma’lumotnomasi). Natijada I laktatsiyaga ega golshtin zotli sigirlardan 6437807 so‘m sof foyda olingan;

golshtin zotli sigirlar uchun aniqlangan maqbul yuqori mahsuldor sigirlar podasi Toshkent viloyati Qibray tumani “Jomiy-bio agro layf” fermer xo‘jaligida joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2024-yil 4-noyabrdagi 02/23-615-sonli ma’lumotnomasi). Natijada I laktatsiyaga ega golshtin zotli sigirlardan 7837205 so‘m sof foyda olingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqoti natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filialida tuzilgan maxsus komissiyalar tomonidan aprobatsiyadan o‘tkazilgan va ijobiy baholangan. Dissertatsiya ishi Zooinjeneriya va ipakchilik kafedrasi yig‘ilishida, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali ilmiy kengashida muhokama qilingan va ma’qullangan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 15 ta ilmiy maqola chop etilgan, shu jumladan, Respublika Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 110 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida bajarilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati ilmiy jihatdan asoslangan, uning maqsadi, vazifalari, obyekti hamda predmeti tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, dissertatsiya bajarilgan muassasaning ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinishi hamda dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi to‘g‘risida ma’lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Adabiyotlar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida sigirlar sut mahsuldorligini oshirishda to‘la qiymatli oziqlantirishning o‘rni, sigirlarni to‘la qiymatli oziqlantirishni tashkil etish, oziqalarning sifatini oshirish, ratsionlarni to‘yimli moddalar bilan muvofiqlashtirish muhimligidan dalolat beradi yangi tuqqan sigirlarni tuqqandan keyin dastlabki oylarida to‘la qiymatli oziqlantirishni qo‘llash, yelinini uqalash va faol yayratish orqali sersut qilish mahsuldorligining irsiy imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishda, rekordchi sigirlar yetishtirishda muhim tadbir hisoblanadi va bu tadbir sermahsul sutbop podalar yaratishda muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Dissertatsiya ishining **“Tadqiqotlarni o‘tkazish joyi, manbai va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot o‘tkazilgan hududning tabiiy-iqlim sharoiti, tadqiqot manbai va tadqiqotni bajarish uslublari bayon qilingan. Ilmiy tadqiqot ishlari 2021-2023 yillarda Toshkent viloyatining Yangiyo‘l tumanidagi “Jamol ota chorva-nasl” naslchilik fermer xo‘jaligi podasida Germaniya davlatidan olib kelingan 90 bosh 3-4 oylik bo‘g‘oz nemis seleksiyasidagi golshtin zotli sigirlarda o‘tkazildi. Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumani Qovinchi mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan bo‘lib “Jamol ota chorva-nasl” golshtin zoti bo‘yicha naslchilik maqomidagi xo‘jalik hisoblanib 1996-yil 16-iyulda fermer xo‘jaligi sifatida tashkil etilgan. **Tadqiqotning obyekti** bo‘lib Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumani “Jamol ota chorva-nasl” naslchilik fermer xo‘jaligiga Germaniya davlatidan keltirilgan nemis seleksiyasidagi sof golshtin zotli birinchi laktatsiyalardagi sigirlar hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot natijalari va muhokamasi”** nomli uchinchi bobida tajribadagi Germaniya davlatidan olib kelingan nemis seleksiyasidagi golshtin zotli birinchi tug‘ishdagi sigirlarning saqlash texnologiyasi, tajribadagi sigirlarga 90 kunlik sersut qilish davrida oziqa sarfi, o‘sish ko‘rsatkichlari, sigirlarning oziqa sarfini mahsulot bilan qoplash xususiyatlari, sigirlarning tana o‘lchamlari ko‘rsatkichlari, ularning klinik va gematologik ko‘rsatkichlari, tajribadagi sigirlarning yelinining morfologik va funksional xususiyatlari, birinchi tuqqan sigirlarni sersut qilish orqali sut mahsuldorligini oshirish yo‘nalishida olib borilgan tadqiqot natijalari bayon qilingan.

Toshkent viloyatinig Yangiyo‘l tumanidagi “Jamol ota chorva-nasl” naslchilik fermer xo‘jaligi, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali hamkorligida Germaniya davlatidan import qilingan nemis seleksiyasiga mansub golshtin zotli birinchi tug‘ishdagi sigirlar sut mahsuldorligini yuzaga chiqarishda oziqlantirish 90 kunlik sersut qilish davrida oziqlntirish ratsioni to‘yimligini 10-15 % oshirish orqali laktatsiya davomida sut miqdorini oshirishga qaratilgan asrash va oziqlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari yo‘lga qo‘yildi.

Tajriba guruhlaridagi golshtin zotli sigirlarni oziqlantirish. Yangi tuqqan sigirlarni laktatsiyasining dastlabki 3 oyi mobaynida sersut qilish tadbirini qo‘llash ularning sut mahsuldorligi bo‘yicha irsiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Germaniyadan keltirilgan golshtin zotli g‘unajinlarni tuqqandan keyin I laktatsiyasining dastlabki 90 kunida sersut qilish oziqlantirish ratsioni to‘yimliligini 10-15 % oshirishning sut mahsuldorligi, tirik vazni va yelin shakllariga ta’siri aniqlangan

1-jadval ma’lumotlarining ko‘rsatishicha, guruhlardagi sigirlarga 90 kun sersut qilish davriga laktatsiya mobaynida sarflangan oziqalar sarfi bo‘yicha III-guruhga 5716 kg oziqa sarflanib I-guruhdagi tengqurlariga nisbatan 9,03 %-ga, II-guruh tengqurlariga nisbatan 13,03 %-ga kam oziqa sarfladi. Xo‘jalik ratsionida AR bilan oziqlantirilgan sigirlar 90 kun davomida sersut qilinganda I-guruhga nisbatan 225,71 EOB, 164,5 kg oziqa birligi, 1634 Mj almashinuvchi energiya, 246,8 kg quruq modda, 21,1 kg hazmlanuvchi protein o‘rtacha ortiqcha sarflangan bo‘lsa, II-guruh sigirlariga 90 kunlik sersut qilish davrida o‘rtacha 857 kg oziqa, 248,13 kg oziqa birligi, 2470,1 Mj almashinuvchi energiya, 371,7 kg quruq modda, 31,8 kg hazmlanuvchi protein ortiqcha sarflandi.

Tajribadagi golshtin zotli birinchi tug‘ishda sigirlarni 90 kunlik sersut qilish davrida o‘rtacha bir boshga oziqa sarfi. Oziqalarning to‘yimlilik qiymati I-guruh birinchi tuqqan sigirlariga 90 kun sersut qilish davrida tengqurlari III–guruh sigirlariga nisbatan 225,71 kg EOB, 164,5 kg oziqa birligi, 1637 Mj almashinuvchi energiya, 246.79 kg quruq modda, 27,8 kg xom protein, 21.1 kg hazmlanuvchi protein,16,5 kg hazmlanuvchi kletchatka, 5,43 qand, 59,7 kg xom yog‘, 1,6 kg kalsiy, 0,6 kg fosforga yuqori bo‘ldi.

Tajribadagi II-guruh sigirlariga 90 kun sersut qilish davrida tengqurlari xo‘jalik ratsionida AR boqilgan sigirlarga nisbatan o‘rtacha 90 kun mobaynida 335,8 kg EOB, 248,1 kg oziqa birligi, 2470,1 Mj almashinuvchi energiya, 371,7 kg quruq modda, 41,7 kg xom protein, 31,8 kg hazmlanuvchi protein, 22.4 hazmlanuvchi kletchatka, 9,83 kg qand, 89,5 kg xom yog‘, 2,1 kg kalsiy, 0,82 kg fosfor ortiqcha sarfladi 2-jadval.

1-jadval

Tajribadagi golshtin zotli birinchi tug‘ishdagi sigirlarni 90 kunlik sersut qilish davrida oziqa sarfi (kg)

Oziqalar	Asosiy ratsion +10% 1-guruh	Asosiy ratsion +15 % II-guruh	Asosiy ratsion III-guruh
Beda pichani	396	415	360
Bug‘doy somoni	663	693	603
Beda senaji	1069	1118	972
Makkajo‘xori silosi	2532	2649	2303
Xashaki lavlagi	912	954	829
Makkajo‘xori doni	111	116	101
Arpa yormasi	155	162	141
Bug‘doy kepagi	282	295	258
Paxta kunjarasi	164	171	149
JAMI	6284	6573	5716
EOB	2460,21	2570,3	2234,5
Oziq.br,	1827,08	1910,71	1662,58
Almashinuvchi energiya,Mj	18271	19107,1	16637
Quruq modda	2733,1	2858,0	2486,31
Xom protein	306,4	320,3	278,6
Hazmlanuvchi protein	232,4	243,1	211,3
Hazm bo‘lmaydigan protein,	34,8	36,5	31,6
Xom kletchatka	551,2	570,7	495,9
Hazmlanvuchi kletchatka	165,3	171,2	148,8
Qand	109,0	112,4	103,57
Xom yog‘	656,4	686,2	596,7
Ca	20,3	21,2	18,7
P	8,8	9,3	8,1
Mona kalsiy fosfat, g	4,5	4,5	4,5
Bentolit, g	5,85	5,85	5,85
Vitamin Esyelin	21	21	21

3-jadval ma’lumotlarining ko‘rsatishicha tajribadagi birinchi tuqqan nemis seleksiyasidagi golshtin zotli sigirlarni I-laktatsiyasini 90 kun davomida asosiy ratsion to‘yimliligini AR 10 %-ga oshirish orqali sersut qilish tajribadagi I-guruh sigirlaridan o‘rtacha 1642 kg sut mahsuloti ishlab chiqarilib bu ko‘rsatkich tengqurlari nemis seleksiyasidagi golshtin zotli birinchi tug‘ishdagi xo‘jalik ratsioni asosida vitaminlar va mikro elementlar bilan boyitilgan AR ratsionda oziqlantirilgan III-guruh sigirlarga nisbatan 149 kgga yoki 9,07 %-ga ($R>0,999$) ortiq sut ishlab chiqargan.

2-jadval

Sigirlar laktatsiyasining dastlabki 90 kunida o‘rtacha har 1 bosh sigirga sarflangan oziqalar AR nisbatan farqi miqdori

Oziqalar	Asosiy ratsion +10% I-guruh	Asosiy ratsion +15 % II-guruh	Asosiy ratsion III-guruh
Beda pichani	36	55	360
Bug‘doy somoni	60	90	603
Beda senaji	97	146	972
Makkajo‘xori silosi	229	346	2303
Xashaki lavlagi	83	125	829
Makkajo‘xori doni	10	15	101
Arpa yormasi	14	21	141
Bug‘doy kepagi	24	37	258
Paxta kunjarasi	15	22	149
JAMI	568,0	857,0	5716

Tajriba guruhlaridagi sigirlarning 90 kunlik sersut qilish davridagi sut mahsuldorligi Tajribadagi birinchi tug‘ishdagi sigirlarni sersut qilishda xo‘jalik ratsioni AR oziqa to‘yimliligini 10-15 %-ga oshirishning 90 kun sersut qilish davrida sut mahsuldorligiga ta’siri o‘rganilindi.

3-jadval

Tajriba guruhlaridagi sigirlarning 90 kunlik sersut qilish davrida sut mahsuldorligi

Ko‘rsatkichlar	**Guruhlar**		
	Asosiy ratsion +10% 1-guruh	Asosiy ratsion +15 % II-guruh	Asosiy ratsion III-guruh
	$\overline{X} \pm S\bar{x}$	$\overline{X} \pm S\bar{x}$	$\overline{X} \pm S\bar{x}$
Bosh soni	10	10	10
Sut miqdori, kg	1642±13,50	1750±13,94	1493±12,87
Sut tarkibidagi yog‘, %	4,1±0,67	4,0±0,66	4,15±0,67
Sut yog‘i chiqimi, kg	67,32±2,73	70,0±2,78	61,96±2,62
Sut tarkibidagi oqsil, %	3,62±0,63	3,52±0,62	3,65±0,63
Sut oqsili chiqimi, kg	59,44±2,56	61,60±2,61	54,49±2,46
4 %- li sut miqdori, kg	1683,05±13,67	1750±13,94	1549±13,11
Quruq modda,%	12,67±1,18	12,62±1,18	12,78±1,19
Yog‘sizlantirilgan quruq sut qoldig‘i,%	8,57	8,62	8,63

Oziqlantirish ratsioni oziqalar to‘yimliligini 15 %-ga oshirib oziqlantirilgan tengqurlari nemis seleksiyasidagi golshtin zotli yangi tuqqan II-guruh sigirlarni 90 kun mobaynida sersut qilish orqali tengqurlari III -guruh sigirlariga nisbatan 257 kg ortiqcha sut yoki (R>0,999) ishlab chiqarildi. Jadval ma’lumotlarining tahlilining ko‘rsatishicha, I-guruhda tengqurlari III-guruhga nisbatan sut yog‘ chiqimi 5,36 kg yoki 7,96 %, sut oqsil chiqimi 4,95 kg yoki 8,32 %-ga, 4 %-li sut miqdori 134 kg (R>0,999), tengdoshlari II-guruh sigirlarida 90 kun davomida sersut qilish natijasida tengqurlari III-guruhga nisbatan sut yog‘i chiqimi 8,04 kg yoki (R>0,999), sut oqsili chiqimi 7,11 kg yoki (R>0,999), 4 %-li sut miqdori bo‘yicha 201 kg yoki (r>0,999) ortiqcha bo‘ldi. Sutdorlik koeffitsiyenti barcha tajriba guruhlaridagi sigirlar sut tipiga mansub bo‘lganligini ko‘rsatdi.

Sigirlarning I-laktatsiyasi mobaynida oziqlantirish Tajribadagi Germaniya davlatidan olib kelingan nemis seleksiyasidagi birinchi tug‘ishdagi sigirlarning Toshkent viloyati kesimida to‘la qiymatli ratsion asosida ratsion to‘yimligini sersut qilish davrida 305 kun laktatsiya davrida 10-15 % ga oshirish natijasida tadqiqotlarimizda xo‘jalik ratsioni asosida boqilgan III-guruh sigirlari iste’mol qilgan oziqalarning to‘yimlilik qiymati I-guruhdagi sigirlarnikidan 537,79 kg EOB, 393 kg oziqa birligi, 3919 Mj almashinuvchi energiya, 587,6 kg quruq modda, 63,47 kg hazmlanuvchi protein, 66.6 kg qand, 4.1 kg kalsiy va 1.7 kg fosforga kam bo‘ldi 4-jadval.

4-jadval

Tajribadagi sigirlarga 305 kun laktatsiya mobaynida oziqalar sarfi, kg

Oziqalar	Asosiy ratsion +10% 1-guruh	Asosiy ratsion +15 % II-guruh	Asosiy ratsion III-guruh
Beda pichani	1193	1297	1108
Bug‘doy somoni	1996	2169	1854
Beda senaji	3219	3497	2989
Makkajo‘xori silosi	7625	8285	7081
Xashaki lavlagi	2746	2983	2549
Makkajo‘xori doni	334	363	310
Arpa yormasi	466	507	433
Bug‘doy kepagi	850	924	791
Paxta kunjarasi	486	526	449
JAMI	18915	20551	17564
EOB	7397,29	8038,51	6859,5
Oziq.br,	5494,58	5969,55	5101,58
Almashinuvchi energiya,Mj	54946	59696,1	51027
Quruq modda	8222.21	8633	7634,61
Xom protein	881,7	921,8	801,6
Hazmlanuvchi protein	698,47	743,3	635
Hazm bulmaydigan protein,	69,6	73	63,2
Xom kletchatka	1646,2	1700,7	1490,9
Hazmlanvuchi kletchatka	392,3	408,1	355,14
Qand	438,2	465,9	371,57
Xom yog‘	1312,8	1372,4	1193,4
Ca	61	66,3	56,9
P	26,5	28,9	24,8
Mona kalsiy fosfat, g	15,25	15,25	15,25
Bentolit. g	19,85	19,85	19,85
Vitamin E-selen, mg	71	71	71

Tajriba guruhlaridagi sigirlarning I laktatsiyasi mobaynidagi sut mahsuldorligi. Tajribadagi nemis seleksiyasiga mansub golshtin zotli birinchi tug‘ishdagi sigirlarni ratsion tarkibidagi oziqalarning to‘yimligini xo‘jalik ratsioni

ARga nisbatan 15 %-ga oshirib oziqlantirilgan II-guruh sigirlarning 305 kunlik laktatsiya davrida sut miqdori III-guruhdagi tengqurlarinikidan 8815 kg yoki 16,1 % (P>0,99), sut yog‘i chiqimi 30,91 kg yoki 15,31 % (P>0,99), sut oqsili chiqimi 21 kg yoki 14,09 % (P>0,99), 4 %li sut miqdori 772,83 kg yoki 14,1 % (P>0,99), yuqori bo‘ldi. Sut tarkibidagi quruq modda, yog‘sizlantirilgan quruq sut qoldig‘i va sut qandi o‘rtasida sezilarli I-guruhlar aro farq kuzatilmadi, bu ko‘rsatkichlar me’yor talablari darajasida bo‘ldi va ular sigirlar sutining to‘yimlilik qiymati yaxshi darajada bo‘lganligidan dalolat beradi 5-jadval.

Xo‘jalik ratsionidagi oziqalar to‘yimliligini 10 %-ga oshirish orqali boqilgan golshtin zotli birinchi tug‘ishda sersut qilish texnologiyasini qo‘llash natijasida laktatsiya davomida tengqurlari III-guruhdagi sigirlarga nisbatan sut miqdori 382,5 kg yoki 7,68 % (P>0,99), sut yog‘ chiqimi 13,9 kg yoki 6,87 % (P>0,99), sut tarkibidagi oqsil chiqimi 12,7 kg yoki 7.0 (P>0,99), 4 %-li sut miqdori bo‘yicha 347,22 kg yoki 6,9 % (P>0,99), ortiqcha bo‘lganligini kuzatamiz.

5-jadval

Tajriba guruhlaridagi sigirlarning 305 kun laktatsiya mobaynida sut mahsuldorligi,kg

Ko‘rsatkichlar	Guruhlar		
	Asosiy ratsion +10% 1-guruh	Asosiy ratsion +15 % II-guruh	Asosiy ratsion III-guruh
	$\overline{X} \pm S\bar{x}$	$\overline{X} \pm S\bar{x}$	$\overline{X} \pm S\bar{x}$
Sut miqdori,kg	4974,5±23,51	5473,5±24,66	4592±22,58
Sut tarkibidagi yog‘,%	4,07±0,67	4,01±0,67	4.12±0,67
Sut yog‘ chiqimi,kg	202,29±4,74	219,31±4,93	188,4±4,57
Sut tarkibidagi oqsil,%	3,66±0,63	3,59±0,63	3,68±0,64
Sut oqsilchiqimi,kg	182,44±4,50	197,88±4,68	169,77±4,34
4%-li sut miqdori, kg	5057,2±23,70	5482,81±24,68	4709,98±22,87
Quruq modda,%	12,69	12,63	12,78
Yog‘sizlantirilgan quruq sut qoldig‘i,%	8,62	8,63	8,66

Sigirlar sog‘in davrining kechish xususiyatlari 6-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinishicha, har uchala tajriba guruhdagi sigirlarda ham sog‘in davri bir tekis kechgan va ularda oylik sut miqdori laktatsiyaning uchinchi oyida ortishi kuzatilib, to‘rtinchi-beshinchi oyigacha yuqori darajada bo‘lgan, oltinchi oyidan boshlab esa u asta-sekinlik bilan pasayib borganligi ko‘zga tashlanadi. Shuni ham ta’kidlash lozimki, oziqlantirish ratsioni to‘yimligini 15 %-ga oshirilga II-guruh sigirlarida eng yuqori birinchi oyidagi sut miqdori III-guruhdagi tengqurlarinikidan 73 kg (13,15 %) yuqori va ikkinchi oyda 40,9 kg (8,54%), sersut qilishning uchinchi oyda35 kg (5,72%) oylik sut miqdori pasayishga boshlagan oltinchi oyida bu ko‘rsatkich 90 kg (14,75 %) yuqori bo‘lganligi ko‘zga tashlanadi.

Tajribadagi nemis seleksiyasiga mansub golshtin zotli I-guruh sigirlarida sersut qilishning birinchi oyda tengqurlari III-guruh sigirlariga nisbatan 38 kg yoki(7,31%), ikkinchi oyda esa 13 kg yoki (2,37 %), uchinchi oyda sut mahsuldorligi bo‘yicha katta farq sezilmadi oltinchi oyligida 60 kg yoki (10,34 %) yuqori bo‘lganligi kuzatildi 6-jadval.

6-jadval

Sigirlar oylik sut miqdorining, sog‘in davri doimiylik koeffitsiyenti

Sog‘in oylari	Guruhlar					
	Asosiy ratsion +10% 1-guruh		Asosiy ratsion +15 % II-guruh		Asosiy ratsion III-guruh	
	Sut miqdori, kg	Sog‘in davrining doimiylik koeffitsiyenti, %	Sut miqdori, kg	Sog‘in davrining doimiylik koeffitsiyenti, %	Sut miqdori, kg	Sog‘in davrining doimiylik koeffitsiyenti, %
I	520	100	555	100	482	100
II	547	105	583,9	105,2	534	110,8
III	575	110,5	612	110,3	577	119,7
IV	620	119,2	670	120,7	590	122,4
V	600	115,4	630	114,0	570	118,3
VI	580	111,53	610	110	520	107,9
VII	520	100	553,5	99,7	480	99,6
VIII	460	88,5	520	93,7	410	85,1
IX	400	76,9	480	86,5	357	74,1
X	152,5	-	260	-	72	-
Sog‘in davri bo‘yicha, kg	4978,5	-	5474,4	-	4592,0	-

Sigirlarni oziqani sut bilan qoplash ko‘rsatkichlari Sigirlardan sutbop podalarda foydalanish samaradorligini baholashda ularni oziqani sut bilan qoplash xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. 7-jadvalda tajriba guruhlaridagi sigirlarning oziqani sut bilan qoplash ko‘rsatkichlari keltiriladi.

7-jadvalning ko‘rsatishicha, sigirlarning oziqani sut bilan qoplash darajasi ularning sut mahsuldorligi bilan uzviy bog‘liqdir. Nemis seleksiyasidagi birinchi tug‘ishdagi golshtin zotli sigirlarni Toshkent viloyati sharoitida mahalliy oziqalardan foydalanib to‘la qiymatli ratsion asosida sersut qilishda oziqa ratsioni to‘yimliligini 15 %-ga oshirilgan II-guruh sigirlariga 305 kun laktatsiya davrida 8038,81 kg EOB, 5969,55 kg oziqa birligi sarflanib 5473.5 kg sut, 5482,81 kg 4 %-li sut ishlab chiqarilgan bo‘lsa, xo‘jalik ratsioni AR boqilgan sigirlar o‘rtacha 6859,5 kg EOB, 5101,58 kg oziqa birligi sarflanib II-guruh tengqurlariga nisbatan 881,5 kg yoki 16, 1%-ga ($R>0,999$) kam sut mahsuloti ishlab chiqarildi 1-rasmga qarang. Tajribadagi birinchi tuqqan sigirlarni ratsion to‘yimliligini 10 % oshirishnatijasida o‘rtacha bir boshga 5494,58 kg oziqa birligi sarflanib tengqurlari xo‘jalik ratsionida boqilgan III-guruh sigirlarining o‘rtacha sut mahsuldorligidan 382,5 kg yoki 7,7 %-ga yoki (R>0,99) ortiqcha bo‘ldi 2-rasmga qarang.

7-jadval

Sigirlarning I laktatsiyada oziqani sut bilan qoplash ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Guruhlar		
	Asosiy ratsion +10% 1-guruh	Asosiy ratsion +15 % II-guruh	Asosiy ratsion III-guruh
305 kunlik laktatsiyadagi o‘rtacha 1 boshga sarflangan EOB, kg	7397,29	8038,51	6859,5
305 kunlik laktatsiyadagi o‘rtacha 1 boshga sarflangan oziq.br,kg	5494,58	5969,55	5101,58
Sut miqdori, kg	4974,5±23,51	5473,5±24,66	4592±22,58
4 %-li sut miqdori,kg	5057,2±23,70	5482,81±24,68	4709,98±22,87
1 kg tabiiy yog‘lilikda sut ishlab chiqarish uchun sarflangan oziqa birligi, kg	1,10	1,09	1,08
1 kg 4 %-li sut ishlab chiqarishga sarflangan oziqa birligi, kg	1,086	1,088	1,083
Har 100 kg oziqa birligiga ishlab chiqarildi: tabiiy yog‘lilikdagi sut, kg	90,53	91,7	90,0
4%-li sut, kg	92,04	91,84	92,32

Tajribadagi sigirlarning yelin xususiyatlari va sut mahsuldorligining yelin shakliga bog‘liqligi Sutbop podalarda sigirlar yelinining zamonaviy sog‘ish uskunalariga moslashganlik darajasini baholashda ular yelinining morfologik va funksional xususiyatlarini baholash alohida ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. Tajriba guruhlaridagi sigirlarning har 100 kg tirik vaznga sut oqsil chiqimining guruhlar bo‘yicha o‘zgarishi



2-rasm. Tajriba guruhlaridagi sigirlarning har 100 kg tirik vaznga sut yog‘ chiqimining guruhlar bo‘yicha o‘zgarishi

8-jadval

Tajriba guruhidagi sigirlarning yelin o‘lchamlari, sm

Ko‘rsatkichlar	Guruhlar					
	Asosiy ratsion +10% I-guruh		Asosiy ratsion +15 % II-guruh		Asosiy ratsion III-guruh	
	$\overline{X} \pm S\overline{x}$	S_v, %	$\overline{X} \pm S\overline{x}$	S_v, %	$\overline{X} \pm S\overline{x}$	S_v, %
Yelin aylanasi	133,2±1,41	1,07	139,7±1,73	1,25	136,0±1,27	0,95
Yelin uzunligi	44,1±1,1	2,41	48,5±0,96	1,97	45,9±0,86	1,86
Yelin eni	40,1±0,78	2,02	43,8±0,75	1,71	41,4±0,77	1,87
Yelinning oldingi qismining chuqurligi	30,2±0,93	2,57	34,4±0,92	2,67	30,6±0,88	3,02
Yelin ning orqa qismining chuqurligi	33,3±0,89	2,68	38,3±0,99	2,46	34,1±0,91	2,58
Oldingi so‘rg‘ichlar uzunligi	8,07±0,48	5,93	8,44±0,78	9,24	8,25±0,62	7,51
Orqa so‘rg‘ichlar uzunligi	7,46±0,49	6,56	9,0±0,66	8,14	7,93±0,57	7,18
So‘rg‘ichlar diametri, mm	2,2±0,40	1,80	2,5±0,31	1,32	2,6±0,35	1,55
Yelin indeksi,%	42,6	-	44,9	-	43,1	-
Yelinning shartli hajmi, sm^3	3974,0	-	4777,6	-	4138,0	-
Sut berish tezligi, kg daqiqa	1,28±0,02	2,33	1,41±0,05	4,40	1,35±0,04	3,80

Eslatma: *r<0,05 **r<0,01, ***r<0,001

8-jadvaldan ko‘rinishicha, I va II tajriba guruhidagi sigirlarning yelin aylanasi III-guruhdagi sigirlarnikidan tegishli ravishda 6,6 sm yoki 5,1% ga (R<0,01) va 2,9 sm yoki 2,3% ga (R>0,05), yelin uzunligi 4,5 sm yoki 10,1% ga (R<0,01) va 1,9 sm 4,2% ga (R<0,05), yelin eni 3,8 sm yoki 9,3% ga (R<0,001), yelinning oldingi qismi chuqurligi 4,3 sm yoki 14,1% ga (R<0,01) va 0,5 sm yoki 1,4% ga, yelinning orqa qismi chuqurligi 5,1 sm yoki 15,2% ga (R<0,001) va 0,9 sm yoki 2,5% ga (R<0,05), oldingi so‘rg‘ichlar uzunligi 0,38 sm yoki 4,7% ga (R<0,05) va 0,19 sm yoki 2,3% ga (R<0,05), orqa so‘rg‘ichlar uzunligi 1,46 sm yoki 19,6% ga (R<0,05) va 0,48 sm yoki 6,4% ga (R<0,05), yelin indeksi 1,4 va 0,6% ga, yelinning shartli hajmi 804,7 yoki 165,1 sm^3 ga va sut berish tezligi 7,2 va 2,5% ga yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldi. Shuningdek, sigirlarning yelinining so‘rg‘ichlar diametri me’yor talablari darajasida va guruhlar o‘rtasida sezilarli farq kuzatilmadi, bu esa ularning mashinada sog‘ish talablariga javob berganligidan dalolat beradi.

Tadqiqotlarning iqtisodiy samaradorligi Iqtisodiy ko‘rsatkichlar 2023-yillik chorvachilikka qilingan xarajatlardan kelib chiqib iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari oziqa va boshqa xarajatlar keltirilgan. Tajribadagi 1 bosh sigirga o‘rtacha ketgan xarajatlar umumiy I-guruhga xarajatlar 7088663 so‘mni tashkil qilib tengdoshlari III-guruhga nisbatan 146684 so‘mga yoki 2,1 %ga,II-guruh sigirlariga III-guruhga nisbatan 541117 so‘m yoki 7,23 %ga ortiqcha xarajat qilindi. Tajribadagi 1 boshi sigirga o‘rtacha oziqaga sarflangan xarajatlar so‘mda I-guruh sigirlariga 15027964,5 so‘m sarflanib tengdoshlari II-guruh sigirlaridan1651398,5 so‘m yoki 9,9 %ga kam bo‘lgan bo‘lsa III- guruh sigirlariga nisbatan 115506,5 so‘mga ortiqcha bo‘ldi. Har 1 bosh sigirdan sog‘ib olingan sutning sotishdan tushgan daromad sut mahsulotining oshishi va yildan yilga sotish narxini qisman oshishi bilan bu ko‘rsatkichlar ham 2023-yilda II-guruh sigirlarda 31200350 so‘m tengqurlari I-guruhga 2845700 so‘mga, III-guruhga mansub sigirlardan esa 5025950 so‘m yoki 16,1 %ga ortiqcha bo‘ldi 9-jadvalga qarang.

Olingan sof foyda 1 bosh sigir evaziga II-guruh sigirlarida 7 037 904 so‘mni tashkil qilib tengdoshlari I-guruhga nisbatan 9,94 %ga, III-guruhdagi sigirlardan esa 38,61 %ga yuqori bo‘ldi. Iqtisodiy samaradorlik darajasi 2023 yili tajribadagi I-guruhda 22,0 %ni, II-guruhda 29,1 %ni III-guruhdagi 19,7 %ni tashkil qildi.

9-jadval

Tadqiqotlarning iqtisodiy ko‘rsatkichlari (1 boshga, so‘m)

Ko‘rsatkichlar	GURUHLAR		
	Asosiy ratsion +10% I-guruh	Asosiy ratsion +15 % II-guruh	Asosiy ratsion III-guruh
Har 1 bosh sigirga ketgan xarajatlar, so‘m	7088663	7483096	6941979
Shu jumladan oziqaga ketgan xarajatlar, so‘m	15027964,5	16679363	14912458
Bazis yog‘lilikda 1 bosh sigirdan sog‘ib olingan sut miqdori, kg	4974,5	5473,5	4592
Har 1 bosh sigirdan sog‘ib olingan sutning sotish daromad, so‘m	28354650	31200350	26174400
Jami sarflangan xarajatlar, so‘m	22116627,5	24162445,9	21854437
Sof foyda, so‘m	6238022,	7037904	4319963
Iqtisodiy samaradorlik, %	22,0	29,1	19,7
1 kg sutning sotish narxi,so‘m	5700	5700	5700
1 kg oziqaning tayyor aralashma xolidagi narxi, so‘m	49272	54686	44893,3

XULOSALAR

1. Tajribadagi III- guruh sigirlariga o‘rtacha 18,43 kg EOB sarflanib tengqurlari I- guruh sigirlariga nisbatan 9,03%-ga, II-guruhga mansub tengqurlaridan esa 13,35%-ga kam bo‘ldi. Oziqlantirish ratsionida quruq modda III-guruhda 2020 g tashkil qilib tengqurlari I-guruh tengqurlari 10.22 5%-ga, II-guruhga tengqurlari 12,93 %-ga ortiqcha quruq modda sarfladi.

2. Tadqiqotlarimizda oziqlantirish ratsionini AR+ 15 %-ga oshirish II-guruh sigirlari iste’mol qilgan oziqalarning to‘yimlililik qiymati I-guruhdagi sigirlarnikidan 289 kg jami oziqa, 110,1 kg EOB, 83,63 kg oziqa birligi, 836,1 Mj almashinuvchi energiya,124,9 kg quruq modda,10,7 kg hazmlanuvchi protein ortiqcha sarflandi.

3. Tajribadagi II-guruh sigirlariga 90 kun sersut qilish davrida tengqurlari xo‘jalik ratsionida AR boqilgan sigirlarga nisbatan o‘rtacha 90 kun mobaynida 335,8 kg EOB, 248,1 kg oziqa birligi, 2470,1 Mj almashinuvchi energiya, 371,7 kg quruq modda, 41,7 kg xom protein, 31,8 kg hazmlanuvchi protein, 22.4 hazmlanuvchi kletchatka, 9,83 kg qand, 89,5 kg xom yog‘,2,1 kg kalsiy, 0,82 kg fosfor ortiqcha sarfladi.

4. Tajribadagi birinchi tuqqan sigirlarni ratsioni to‘yimliligini AR+15 % oshirilgan guruhdagi sigirlarning tug‘ishdan oldingi vazni 495,5±1,85 kg-ni tashkil qilib 90 kun sersut qilish davriga kelib 9,3 %-ga yoki (P>0,999) ortgan.

5. Oziqlantirish ratsioni to‘yimliligini 15 %-ga oshirilga II-guruh sigirlarida eng yuqori birinchi oyidagi sut miqdori III-guruhdagi tengqurlarinikidan 73 kg (13,15 %) yuqori va ikkinchi oyda 40,9 kg (8,54%), sersut qilishning uchinchi oyda35 kg (5,72%) oylik sut miqdori pasayishga boshlagan oltinchi oyida bu ko‘rsatkich 90 kg (14,75 %) yuqori bo‘lganligi ko‘zga tashlanadi.

6. To‘laqiymatli ratsion asosida va oziqlantirish ratsionini to‘yimliligini 10-15% oshirib boqish orqali nemis seleksiyasiga mansub sigirlar Toshken viloyati sharoitida imkon darajada yaxshi issiqqa chidamlilik indeksiga ega bo‘ldilar, bu esa ularning quruq issiq iqlim sharoitiga yaxshi moslashganligini ko‘rsatadi.

7. II-guruhdagi sigirlar qoni tarkibida eritrotsitlar miqdori yozda I-guruh sigirlarining qish faslidagi ko‘rsatkichidan 7,47 % (P>0,99) bahordagisidan 3,74 % (P>0,99) yozdagisidan 2,18 % va kuzdagi ko‘rsatkichidan 1,81 %, leykotsitlar tegishli ravishda 6,21; 3,26; 1,66 va 3,89 %, gemoglobin esa 5,87; 3,81; 2,63 va 4,46 % yuqori bo‘lganligi aniqlandi. Bu ma’lumotlar sermahsul II-guruh sigirlarining qoni yoz faslida yuqori darajada ushbu elementlar bilan yaxshi to‘yinganligidan dalolat beradi.

8. Tajribadagi sigirlarni kun davomida kuzatishlardan olingan xulosaga ko‘ra oziqa istemoli davri, tik turgan holda kavish qaytarish va sut sog‘lig‘i, sut tarkibidagi yog‘ miqdori, sut yog‘i, 4% sut mahsuldorligi o‘rtasidagi aniqlangan ijobiy bog‘liqlik sigirlarning ushbu mahsuldor ko‘rsatkichlarining muqarrar ravishda yaxshilanishiga olib keladi. va ular uchun selektsiya sut podasining sifat jihatidan yaxshilanishini ta’minlaydi.

AMALIY TAKLIFLAR

1. Toshkent viloyati sharoitida chetdan keltirilgan nemis seleksiyasidagi golshtin zotli sigirlarni I laktatsiyaning dastlabki 90 kuni mobaynida sersut qilishda oziqlantirish ratsioni to‘yimliligini 10-15 % oshirib oziqlantirish, yelinini uqalash va faol matsion rejim asosida yayratish orqali sigirlarni sut mahsuldorligi 15 %ga oshi taklif etiladi.

2. Chetdan olib kelingan Golshtin zotli sigirlar podasida ularning sut mahsuldorligini yaxshilashda tadqiqotlarda aniqlangan maqbul birinchi tug‘ishidagi yoshini, yelin shakllarini, sutdan chiqqandan tug‘ishgacha davrini, tirik vaznini hisobga olgan holda seleksiya ishlarini olib borish tavsiya etiladi.

РАЗОВЫЙ УЧЕНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ PhD.03/30.12.2019.B.05.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИЙ

ХОЛЖИГИТОВ АСКАР МАРИФЖОНОВИЧ

ТЕХНОЛОГИЯ УВЕЛИЧЕНИЯ МОЛОЧНОЙ ПРОДУКТИВНОСТИ ПЕРВОТЕЛОК ГОЛШТИНСКОЙ ПОРОДЫ, ЗАВЕЗЕННЫХ ИЗ-ЗА РУБЕЖА

06.02.03-Частная зоотехния. Технология производства продукции животноводства

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PHD) ПО СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ

Фергана–2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за номером в B2024.2.PhD /Qx1446

Диссертация выполнена в Ташкентском филиале Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу: (www.fdu.uz) и Информационном образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Рузиев Рахмонкул Истамович** кандидат сельскохозяйственных наук, старший научный сотрудник
Официальные оппоненты:	**Турганбаев Рузимбай Уразбаевич** доктор сельскохозяйственных наук, профессор
	Саттаров Нормурод Эшмаматович кандидат сельскохозяйственных наук, доцент
Ведущая организация:	**Ташкентский государственный аграрный университет**

Защита диссертации доктора философии (PhD) состоится «27» 02 2025 года в 09:00 часов на заседание разового научного совета на основе научного совета по присуждению ученых степеней PhD.03/30.12.2019.B.05.03 при Ферганском государственном университете. (Адрес: г. Фергана, ул. Мураббийлар, 19). Тел.: (+99873) 244-44-02; факс: (99873) 244-44-93; Веб-сайт: www.fdu.uz e-mail: fardu_info@umail.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (регистрационный номер 460). (Адрес: 150100, Фергана, улица Мураббийлар, д. 19. Тел.: (+99873) 244-44-02; faks: (99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz.).

Автореферат диссертации разослан «12» 02 2025 года.

(протокол рассылки № 1 от «12» 02 2025 года).

И.И.Зокиров
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.б.н., профессор

У.Б.Мирзаев
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, к.б.н., доцент.

Г.Юлдашев
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.с.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Спрос на животноводческую продукцию-молоко, молочные продукты, мясо, мясопродукты, которые к настоящему времени становятся ежедневной потребностью населения мира, растет день ото дня. В животноводстве значение кормов в укреплении кормовой базы велико. В животноводческой отрасли сельского хозяйства важное значение имеет создание прочной кормовой базы, организация полноценного питания дойных коров, обеспечение достаточным количеством питательных кормов с целью повышения молочной продуктивности дойных коров и получения здорового потомства.

